XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 27-iyul VII-26-94-4-57-K/26 Dehqonobod tumani

Dehqonobod tumanida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan koʻrsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun toʻlov tariflari miqdorini tasdiqlash toʻgʻrisida

Dehqonobod tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish taklifi boʻyicha Dehqonobod tumani hokimining oʻrinbosari O.Boyto`rayevning axboroti eshitildi.

Taʼkidlandiki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-387-sonli qarorning 8.a-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tumanlar markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatishga ruxsat berilgan.

Bunda, chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatganlik boʻyicha tariflar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga koʻrib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini taʻminlash maqsadida hamda Dehqonobod tumani hokimining oʻrinbosari O.Boyto`rayevning taklifini koʻrib chiqib, Kengashning Mahalliy budjet,

tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi qarorini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosi yuzasidan Dehqonobod tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish taklifi bo‘yicha Dehqonobod tumani hokimining o‘rinbosari O.Boyto`rayevning axboroti hamda Kengashning Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 23-iyundagi DKQ 03-01/48-26-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Chiqindilarni olib chiqishda to‘lov tarifi hamda chiqindilarni boshqarishda tuman obodonlashtirish boshqarmasi (O.Boyto`rayev), Qashqadaryo viloyati Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasi Dehqonobod tumani bo’limi (O‘.Jo‘lliyev) tuman tibbiyot birlashmasi (A.Egamshukurov), tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (B.Jo‘rayev) tuman hokimligi bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariyaekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Boltayev) zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror “Dehqonobod ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **SALIMOVA ZEBINISO XXX**

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani
Kengashining
2026-yil 27-iyuldagi
VII-26-94-4-57-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha

T A R I F L A R

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqam**	**Oʻlchov birli**	**Tarif miqdori (soʻm)** (QQS bilan)
Yuridik shaxslar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	96 628,0
Yuridik shaxslar uchun	Obodonlashtirish	m^2	3 000,0